

OLIV TA'LIM MUASSALARI TALABALARIDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIKNI MAZMUN MOHIYATI

Akramova Dildora Ergashevna

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" kafedarsi
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444930>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining oliy ta'limga pedagogik-psixologik moslashuvchanligi haqida so'z yuritiladi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining o'z kasbiga bo'lgan qiziqish va imkoniyatlarini oshirish, hamda oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni qanday qilib moslashtirish haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: talabalar, moslashuv, adaptatsiya, psixologik moslashuv, yosh pedagog, kasb, kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy moslashuv, ijtimoiy adaptatsiya, psixologik adaptatsiya, kasbiy-pedagogik adaptatsiya, kasbiy shakllanish.

СУТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье говорится о педагогико-психологической адаптированности студентов высших учебных заведений к высшему образованию. Приводятся мнения о том, как повысить интерес и возможности учащихся дошкольного образования к своей профессии, а также как адаптировать будущих педагогов в высшей школе.

Ключевые слова: студенты, адаптация, адаптация, психологическая адаптация, молодой педагог, профессия, профессиональная деятельность, профессиональная подготовка, профессиональная адаптация, социальная адаптация, психологическая адаптация, профессионально-педагогическая адаптация, профессиональное становление.

THE ESSENCE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FLEXIBILITY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article talks about the pedagogical and psychological adaptability of students of higher education institutions to higher education. Opinions are given on how to increase the interest and opportunities of students of preschool education in their profession, as well as how to adapt future educators in higher education.

Keywords: students, adaptation, adaptation, psychological adaptation, young pedagogue, profession, professional activity, professional training, professional adaptation, social adaptation, psychological adaptation, professional-pedagogical adaptation, professional formation.

Bir necha asrlardan beri ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida pedagog shaxsi yuksak ijtimoiy mavqega ega bo'lgan xalqning etnik ongi va tafakkuriningeng oliy namunasi sifatida e'zozlab kelingan. Ana shunday yuksak bahoga loyiq zamonaviy pedagogning psixologik qiyofasi, yani uning shaxsiy, ma'naviy-marifiy, hamda kasbiy sifat va fazilatlarini qanday bo'lishi lozim? Psixologiyaning hozirgi tahlillariga ko'ra, ta'lim va tarbiya shakli, mazmuni va mohiyati jihatidan milliy-etnik hodisa hisoblanadi. Bunda pedagog o'z xalqining (millatining) marosimlari, an'analari, odatlari va umuman, xalqining psixologik qiyofasini, etnopsixologiyasini o'zida aks ettiradi. Tabiiyki, har bir etnosga, ya'ni millatga xos ideal shu millatning ta'lim va tarbiyasida ro'yobga chiqadi. Mazkur paradigma-ideallar shu etnosning,

xalqning ongini, qarashlarini, qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi, hamda milliy ong va milliy o'zlikni anglashi esa millatning ming yillar davomida turmush tajribasida orttirgan donoligida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'qiydigan, tarbiyalanadigan yosh avlod hamma vaqt o'z millatiga xos etnopsixologik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi va albatta o'zlashtiradi.

Mazkur xususiyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

-milliy ongning o'ziga xos xususiyati va tafovutli komponentlarini saqlagan holda o'zligini anglashi;

- milliy tafakkuri, fikr yuritish jarayonining o'ziga xosligi;

-irodaviy-aqliy xatti-harakatlari, amallari, his-hayajonlari va tuyg'ularining o'ziga xosligi;

Boshqa kishilar, boshqa etnos vakillari bilan muloqot va o'zaro aloqalarda milliy xarakterning o'ziga xosligi. Bu esa, ta'lim va tarbiya mazmunida o'ziga xos psixologik xususiyatlar bivosita namoyon bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya jarayonlarini amalga oshirayotganda pedagog quyidagi prinsip va qonuniyatlarga rioya etishi lozim:

a) tarbiyalanuvchiga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik ta'sirlar shu millatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqlik va uyg'unlik prinsipi asosida ta'lim va tarbiya an'anaviy tadbirlar orqali amalga oshirilishi zarur bo'lib, mazkur tadbirlar tarbiyalanuvchiga tushunarli va shu xalqning urf odatlari, an'analari, taomillari, ideallari bilan bog'liqligi;

b) milliy ong va milliy o'ziga xoslik psixologik-pedagogik faoliyatning umumiyliigi, birligi qonuni, bunda pedagogustozning faolligini etnik jamoa vakili ya'ni tarbiyalanuvchilarning, talabalarning milliy o'zlikni anglash xususiyatini, axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini e'tiborga olgan holda o'ta optimal-ratsionalligi. Psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta'sirlarni singdirish kompleksi ya'ni majmui shu etnik jamoaga xos axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va ishlab chiqarish, ya'ni mehnat me'yorlarining evolyusiyasiga moslab tashkil etilishi; tarbiyalanuvchilarning ma'lum psixologik-pedagogik ta'sirlarga moslasha olish imkoniyatlarini e'tiborga olishi zarur.

E.Frommning ta'kidlashicha, inson ijtimoiy hayotning hamma "sinovlari"ga moslasha oladi va uni o'ziga xos tarzda o'zlashtiradi. Buning natijasida inson ichki ehtiyojlariga to'g'ri keladigan shart-sharoitlarni izlash va yaratishdan hech qachon to'xtamaydi. Psixologik adaptatsiya shaxsning ijtimoiy, sotsial-psixologik, kasbiy-pedagogik aloqa va munosabatlar tizimiga, jamoada biror vazifani bajarish tizimiga ruhiy qo'shila olish jarayonidir. Oliy ta'lim talabalari turli yosh guruhlariga mansub bo'lishiga qaramasdan umumiy maqsad sari birlashishadi, ya'ni tanlagan mutahassislik bo'yicha malakali kadr bo'lib yetishish. Psixologiyada insonning hayoti va kasbiy faoliyati bilan bog'liq psixologik adaptatsiya quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Ijtimoiy adaptatsiya-mazmuniga ko'ra, shaxsning axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqa jabhalardan iborat me'yorlarga moslashuvi.

2. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya – shaxsning odamlar bilan psixologik aloqa va munosabatlar tizimiga, uning turli-tuman sotsial-psixologik rollarni bajarishga kirishishi, ya'ni moslashuvi.

3. Kasbiy-pedagogik adaptatsiya – shaxsning o'quv-biluv va pedagogik faoliyatida o'zaro bog'liqlik va hamkorlik munosabatlariga moslashuvi.

4. Ekologik-psixologik adaptatsiya – shaxsning o'zi yashab turgan va faoliyat ko'rsatayotgan tashqi muhit ya'ni ijtimoiy jamiyat bilan o'zaro bog'liqligi va unga moslashuvi.

Shaxsning psixologik moslashuvi adaptatsiya jarayoni uning faolligi ortishi bilan tavsiflanadi. Uning mohiyati shuki, insonning turli vositalar bilan borliq va atrof- muhitni o.,zgartirishga qaratilgan xatti-harakatlari maqsadga yo'naltirilgan hisoblanadi. Kasbiy adaptatsiya – bu kishining kasbiy ish faoliyatiga kirishish jarayoni hamda uning kasbiy muhit bilan o'zaro ta'sirini umumlashtirish hisoblanadi. Yosh mutaxassis kasbiy moslashuvining o'ziga xos xususiyati ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liq. Mutaxassisning kasbiy moslashuv jarayoniga ta'sir o'tkazuvchi tashqi sharoit va omillarga quyidagilar kiradi:

-kasbiy faoliyatning maqsadi, mazmuni, vositalari va tashkiliy texnologiya xususiyatlari.

-kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlarning xususiyatlari.

Mutaxassisning kasbiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi ichki shart-sharoit va omillarga kasbiy moslashish imkoniyatining darajasi, shaxs organizmining moslasha olish sifati va kasbiy faoliyat motivlarining pedagogik faoliyat talablariga aynan mos kelishidir. Yosh pedagogning kasbiy moslashuvi muhit bilan kasbiy faoliyati o'zaro ta'sir ko'rsatadigan quyidagi asosiy predmetli sohalarda amalga oshiriladi:

1. Kasbiy-faoliyatli: pedagogik faoliyatga, uning maqsadlari, mazmuni, vositalari, texnologiyasi, ish tartibi va jadalligiga moslashish.

2. Tashkiliy-me'yoriy: ta'lim muassasasida belgilangan tartib-qoidalar, tashkiliy me'yorlar, mehnat intizomi va boshqa talablarni bajarishga ko'nikma hosil qilish.

3. Ijtimoiy-kasbiy: kasbiy-ijtimoiy vazifalar, pedagog shaxsi va kasbiga xos vazifalarni bajarishga moslashish.

4. Ijtimoiy-psixologik: ijtimoiy-psixologik vazifalar, pedagoglar jamoasida mavjud norasmiy, axloqiy me'yorlar, xulq qoidalari, qadriyatlar va muomala-munosabatlarga ko'nikma hosil qilish.

5. Ijtimoiy holatlar: pedagogik faoliyatda bajariladigan mavjud shart-sharoitlarga, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, milliy-madaniy va boshqa muhitlarga moslashish hosil qilish. Yosh pedagog uchun kasbiy moslashuvda kasbiy-faoliyatli moslashuv yetakchi rol o'ynaydi.

Hozirgi zamon pedagogi kasbiy-faoliyatli moslashuvining samarali kechishida zamonaviy o'qitish uslubining o'ziga xos xususiyatlari hisoblangan quyidagi jihatlarga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir;

-ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy-g'oyaviy tamoyillarga moslab dasturlashtirish va rejalashtirish;

-o'quv-biluv materialining murakkablik darajasi va o'rganish sur'atini tarbiyalanuvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlariga moslash;

-tarbiyalanuvchilar nazariy va amaliy tayyorgarliklarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga uyg'unlashuvini ta'minlash;

-tarbiyalanuvchilarning faolligi va ta'lim jarayonining avtonomligini oshirish;

- ta'lim oluvchilarning individual-amaliy va jamoaviy ishlarini birga qo'shib olib borish;

-o'quv jarayonini zamonaviy texnik vositalar hamda ko.,plab texmoduslar yordamida jadallashtirish;

-ta'limni tabaqalashtirish va o'quv fanlarini kompleks-kompyuter dasturlarining eng yangi loyihalarida birlashtirish.

Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida quyidagi prinsiplarga amal qilishi lozim:

a) o'zini o'zi tashkil etish prinsipi-o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etishning muntazam shakllanib va takomillashib borish qonuniyatlariga amal qiladi;

b) evolyusiyasi prinsipi-o'quv-psixologik jarayonining shakl va usullarini doimiy o'zgartirib borishni nazarda tutadi;

v) avtonomlik prinsipi-ustoz va tarbiyalanuvchini ta'lim jarayonida tashabbuskor hamda faol dinamik harakatlarni bajarishga yo'naltiradi;

g) mas'uliyatlilik prinsipi-bu, bilim olish, malaka va ko'nikmalarni egallashda o'zi bajaradigan amallar, xatti-harakatlarni izchil tarzda nazorat qilib borishni taqozo etadi;

d) rolli ishtirok prinsipi-bu, ustoz va ta'lim oluvchidan spesifik funksiyalar bajarishni talab etadi: ustoz tarbiyalanuvchining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etuvchi, boshqaruvchi; talaba esa ijro etuvchi rolini bajaradi.

e) psixologik sifat va samaradorlikni ta'minlash prinsipi-bunda, pedagog va tarbiyalanuvchilar faoliyatining barcha komponentlari muvofiqlashtirilgan yagona mexanizmdek bo'lishi nazarda tutiladi; ya'ni jamoaning barcha a'zolari umumiy maqsadga erishish yo'lida bir-birlariga yordam berib, qiyinchiliklarni birgalikda bartaraf etishga intilishlari va ma'naviy-ruhiy hamkorligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat .Psixokorreksiya.T.:—Ijod press nashriyoti. 2019-yil.
2. Маҳкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ. *Academic research in educational sciences*, (3), 815-830.
3. Gaynazarova G.A. Actual Problems of Continuous Qualification Improving of Preschool Educational Institution Tutors // *Eastern European Scientific Journal*.Ausgabe, ISSN 2199-7977, DOI 10.12851/EESJ201808. – Germany, 2018.– №4 – Pp.104-109. (13.00.00; №3)
4. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. *Общество и инновации*, 2(11/S), 111-114.
5. Akramova, D. (2022). BO'LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
6. Eshchanova, G. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SOTSALIZATSIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 561-564.